

To'g'ri tanlangan kasb — muvaffaqiyat kaliti

2015-yil
iyun
№06 (54)

Kasbiy fanlar metodikasi

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy metodik nashr

e-mail: kf_metodika@inbox.ru



N. Haydarov olgan surat

**DARSINGIZNI QANDAY
TASHKIL ETASIZ?**

4-bet

**QIRQIMNING KESIMDAN
FARQI NIMADA?**

14-bet

**ILM OSMONNING
YORQIN YULDUZI**

30-bet

shuningdek, guruhlarining har bir a'zosining imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo, masalani muhokama qilinadi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo, masala yechimi sifatida taqdim etgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni muhokama qiladilar.

"6x6x6" metodining afzallik jihatlari quyidagilar:

- guruhlarining har bir a'zo-sini faol bo'lishga undaydi;

- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;

- guruh a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;

- ilgari surilgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt ichida (25 daqiqa) ham munozara, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat yuritadi.

"6x6x6" metodi



yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- I. O'qituvchi 6 ta stol atrofiga 6 ta stul qo'yib chiqadi.

- II. Seminar qatnashchilari 6 guruhga bo'linadilar. 6 guruhga 6 xil nom, ya'ni "Everest", "Tafakkur", "Omad", "Ziyo", "Tashabbus", "Zakovat" kabi va har bir nom ostida tarqatma varaqalar beriladi, jami 36 ta.

- III. 6 ta jamoaga 6 xil topshiriq va vazifalar beriladi, bular:

1. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qituvchining ish stolida qanday me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lishi kerak?

2. Ishchi o'quv dasturi qaysi me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda tuziladi va qachondan ish faoliyatiga tatbiq etilishi mumkin?

- Ishchi o'quv dasturining auditoriya o'quv yuklamalari qaysi shakllar asosida ko'rsatilishi kerak?

- Ishchi o'quv dasturi yuklamalari qaysi me'yoriy hujjatga mos bo'lishi shart?

3. Shaxsiy yillik ish rejasi hisobot jurnalini o'z yillik yuklamangiz asosida to'ldiring (blanka ilova qilinadi).

4. Topshiriq: iltimos, bo'sh joylarni to'ldiring (ta'lim jarayoni).

5. O'zingiz qo'llaydigan me-

todlar haqida tushuncha bering. Izoh: har bir pedagog o'z metodi haqida.

6. "Mening dars jarayoniga tayyorgarlik faoliyatim". Blits-tezkor o'yin.

4. O'qituvchi guruhlar faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahat beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, topshiriqlar bajarilganiga ishonch hosil qilgach, munozaralarini yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangi shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tahsil oluvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan topshiriq yechimlarini muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

Habiba HASANOVA,
Ohangaron politexnika
kasb-hunar kolleji
o'qituvchisi



KORXONALARDA MOLIYAVIY HOLAT TAHLILINI TASHKIL QILISH

Muhtaram Prezidentimiz mamlakatimizni 2014 – yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 – yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish bora-sidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas. Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur», deb ta'kidlagan edi.

Korxonalar moliyaviy salohiyatini tahlil qilish ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi ichki auditorlar oldiga qo'yilgan vazifalardanidir.

Ichki audit tahliliy ishlarining samaradorligi tahlilning chuqurligi va har tomonlamaligi bilan uni o'tkazishga ketgan sarfxarajatlar nisbatida namoyon

bo'ladi. Shu munosabat bilan ma'lumotlarni to'plash va saqlashning eng yangi usullari va texnik vositalaridan foydalanish zarurdir. Ishlarni soddalashtirish uchun alohida uslublar ishlab chiqilib, ular asosida maxsus ishlab chiqilgan jadvallarni to'ldirish yotadi, bu jadvallar ko'rsatkichlari keyinchalik qiyoslanadi,

baholanadi va umumlashtiriladi.

Boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida moliyaviy tahlil o'tkazish ko'p jihatdan shakllantiriladigan va qo'llaniladigan axborot bazasining sifati hamda uni baholash usullariga bog'liqdir. Bu xo'jalik sub'yektining moliyaviy salohiyatini tahlil qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot bazasining sifati yuqori darajadagi korxonaning moliyaviy salohiyatini belgilab beradi.

Soha mutaxassislari L.Gilyarovskaya va A.Vexorevaning fikriga ko'ra, moliyaviy holat tahlilini uch bosqichda o'tkazish maqsadga muvofiq:

– dastlabki bosqich – korxonaxarajatlari hisobotini tahlil qilishning maqsadga muvofiqligi haqida qaror qabul qilish;

– tayyorgarlik bosqichi – hisobot davrida ish sharoitlarini baholash zarurati munosabati bilan balansga izoh xati bilan tanishish, faoliyat ko'rsatkich-

2015-yil
iyun
№06 (54)

Kashbiy fanlar metodikasi

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik nashr

e-mail: kf_metodika@inbox.ru

TAHRIR HAY'ATI:

Shamsenur ABDULLAYEVA,
pedagogika fanlari nomzodi

Rafiq MAHMUDOV,
texnika fanlari nomzodi

Norbek TAYLAQOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Sobir TURSUNOV,
pedagogika fanlari doktori

Zayniddin XUDAYBERDIYEV,
iqtisod fanlari doktori,
professor

Murodulla XOLMUHAMMEDOV,
texnika fanlari nomzodi

Qurbonali XOLIQOV,
tadqiqotchi

Bosh muharrir:
Matluba SHUKUROVA

Navbatchi muharrir:
Abror UMARQULOV

Musahhih:
Sadoqat RO'ZIYEVA

Jurnal 2011-yil
yanvar oyidan chiqa boshlagan

Muassis:
"METODIK TA'LIM SERVIS" MCHJ
Jurnal Toshkent shahar Matbuot va
axborot boshqarmasi tomonidan
07.02.2014- yilda №02-00136
raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
100000, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Telefonlar: 8-371-233-66-03 (faks),
236-18-05, (+99894) 697-28-50
E-mail: kf_metodika@inbox.ru
Bosishga 2015-yil 20-iyun kuni ruxsat etildi.
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi
60x84 1/8. Qog'oz hajmi shartli
6 bosma taboq.
Buyurtma №KF-130. Tiraji: 2754
"Avtonashr" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

MUNDARIJA

Izlanish ehtiyoji: ta'lim sifatini yuqori
darajaga olib chiqadi

2-bet

Ilm osmonining yorqin yulduzi

4-bet

Darsingizni qanday tashkil etasiz?

6-bet

Korxonalarda moliyaviy holat tahlilini
tashkil qilish

9-bet

Travelling

12-bet

Qirqimning kesimdan farqi nimada?

14-bet

Dars qanday tahlil qilinadi?

20-bet

Приучим детей к моральным нормам
общества

23-bet

Uyingiz ko'rki

26-bet

Qo'g'irchoqqa jon ato etib...

30-bet

Davr ayoli

32-bet